

NEMIS TILI FRAZELOGIYASIDA SON BILAN YASALUVCHI  
FRAZELOGIZMLAR XUSUSIYATI

Abduraxmonov Alisher

*O'zMU, XFF, Lingvistika (nemis tili)**mutaxassisligi 1 kurs magistranti**Ilmiy raxbar: f. f. n., Abdullayeva S*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada nemis tili frazeologizmlarining tasnifi va son bilan yasaluvchi frazeologizmlar xususiyati hamda nemis tilida raqamlarning ramziy ma'nosi haqida ma'lumotlar o'rin olgan.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologizm, son, tilshunoslik, frazeologik birlik, leksemalar va morfemalar, semantika.*

Frazeologizmlar tilning lug'at tarkibida o'ziga xos o'rin tutadigan va so'z boyligining boyish yo'llaridan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar murakkab tuzilishga ega bo'lib, ilk marotaba rus tilshunos olimasi I. I. Chernyasheva ushbu atamaga ta'rif berdi. Xususan, u "frazeologik birliklar"ni (kamida bitta komponentning ma'nosi bilan) va frazeologik tipga xos bo'lmagan "turg'un so'z komponentlar"ini bir-biridan farqlab berdi.

N. Teliya muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko'rinishini leksikologiya bilan yonma - yon mustaqil bo'lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo'limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so'zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb izoh berdi.[1, 417b]

Sonlar frazeologizmlarning shakllanishida faol ishtirok etadi. Sonlarning ramziy yoki madaniy ma'no tashuvchi bo'lishi mumkinligi, bu ularning frazeologik birliklarda qo'llanishi, shuningdek, ayrim frazeologizmlarning milliy til tasviridagi rolini tushuntiradi.

Agar siz «eins» (bir) sonli frazeologizmlarga qarasangiz, ushbu frazeologizmlar guruhi nemis tilida eng keng tarqalganini ko'rishingiz mumkin<sup>215</sup>. «Eins» bilan bog'liq topilgan frazeologizmlarning qiymatlari xilma-xildir. Masalan: neytral frazeologizmlar va hissiy rangdagi frazeologizmlar ham bor.

«Eins» bir raqami bilan qo'llanilgan frazeologizmlarning tahlilini umumlashtirib, biz turli xil qadriyatlardan umumiy narsani, ushbu frazeologizmlarning umumiy ma'nosini ajratishga harakat qildik. «Eins» sonli frazeologizmlarning asosini ibtidoiy oziga xoslik, birlik, ma'lum bir jamoaning surati tashkil qiladi.

Ushbu maqolada ko'rib chiqiladigan keyingi guruh - bu ularning tarkibiga kiritilgan "zwei" (ikki) soni bilan qo'llanilgan frazeologizmlardir. Bu frazeologizmlar barcha tillarda keng tarqalgan. Jumladan nemis tilshunosligida ham: Jedes Ding hat zwei Seite (har narsaning ikki tomoni bor), niemand kann zwei Herren dienen (bir ishning boshini tutgan maqul).

<sup>215</sup> Novikova E.N. Hozirgi nemis tilidagi numerativ komponentli frazeologik birliklar: Dis. ...kand. filolog, fan. - Kiev, 2001 yil

Frazeologizmlarda birikmaning, gap shaklining ma'lum bir qolipi doimiy tarkibiy qism sifatida leksemalar va morfemalar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Masalan : "Augen machen"- frazeologizmi asli ko'zini paxtasi chiqmoq, hayratdan qotib qolmoq.

"Augen" leksema shaklining "machen" leksemasiga tobelanishi bilan tuzilgan to'ldiruvchili birikmaga teng ushbu frazeologizmning ikkinchi a'zosi "machen" leksema bilan ifodalangan. Bu frazeologizmga bir butun holda bo'lishli-bo'lishsiz, mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichi nutqda qo'shiladi.

Frazeologizmdan nutqda xuddi shundan birikma ham tuzib ishlatiladi. Nutq-ning o'zida tuziladigan bunday birikma erkin birikma deyiladi [va bunday birikmaga zid](#) holda frazema turg'un birikma deyiladi<sup>216</sup>. Frazeologizmlarda hozirgi nemis tilidagi sintaktik bog'lanishlarning deyarli barcha turlari o'z aksini topgan.

Jahon tarixi va madaniyatida umumiy sonlarning, xususan, "ikki" (zwei)ning ahamiyatiga birinchi bo'lib grek mutafakkiri Pifagor e'tibor qaratgan. U aytdi: "Dunyodagi hamma narsa raqamlardan iborat". O'zaro ta'sirda Yunon faylasufi toq va juft sonlarning ta'sirini ko'rgan qarama-qarshiliklar birligining universal printsipini ya'ni dunyo chegara va cheksizlikdan iborat deb aytib o'tdilar. Shu asosida Pifagor o'z falsafasida shu ikki jihatga e'tibor qaratgan. "Ikki"(zwei) raqami deyarli hamma joyda ikkilik sifatida paydo bo'lgan. (*Zwei Seelen in einer Brust*).

Nemis madaniyatida "drei" (uch) raqami alohida o'rin tutadi. Bunga asosiy sabablardan biri mashhur nemis bayrami yani: har yili Rojdestvodan keyin o'n ikkinchi kuni nishonlanadigan Epiphany. Bundan tashqari, juda ko'p sonli nemis so'zlari, frazeologizmlari uch raqami bilan yaratilgan: der Dreikäsehoch (*ein kleiner Junge*), der Dreier (*Münze (kleinste) Wert von drei Pfennig*), das Dreigespann (*drei Pferde*), Drittes Reich va boshqalar<sup>217</sup>.

Nemis tili frazeologiyasida "drei" (uch) raqami bilan yasalgan frazeologizmlar keng tarqalgan. Tilning frazeologik tarkibi esa leksikaning eng o'ziga xos qismi bo'lganligi sababli frazeologik muhitdagi uch raqami yangi ramziy ma'nolarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, frazeologizmlarning tarkibiy qismiga aylangan son nomi aniq son qiymatlarini yo'qatadi.

«Vier», «fünf», «sechs», va boshqa sonli frazeologizmlar bir qator vazifalarni bajaradi. Ular nemis tilida ham sinonimlar va variantlarga ega bo'lishi mumkin (In alle vier Himmelsrichtungen; in alle vier Winde; in die vier Richtungen der Windrose).

Umuman olganda, Nemis tilida son komponentli bir nechta frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni "birdan", "beshgacha" raqamli frazeologik birliklardir, ular eng katta guruhni tashkil qiladi.

"bir", "ikki", "uch" sonli turg'un iboralar singari, "to'rt", "besh", "olti", "yetti" va boshqa sonli frazeologik birliklar ham bir qator xususiyatlarga ega va ushbu sonlar bilan qo'llangan frazeologizmlarni xam uchratish mumkin:

„Vier Augen sehen mehr als zwei“. (Ko'pchilik bilan kengashgan yaxshiroqdir)

„Alle fünf Finder nach etw. lecken“ (besh barmg'ini og'ziga tiqmoq)

<sup>216</sup> Borodyanskiy I.A., Stepanova I.S. Frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining ramziy ma'nosi haqida // Romano-german filologiyasi. - Kiev: Oliy maktab, jild. 19, 2000 yil

<sup>217</sup> Levkovskaya K. A. Nemis tilining leksikologiyasi / K. A. Levkovskaya - M., Oliy maktab, 1991 y.

“In sieben Sprachen schweigen” (to`g`ri kelgan so`zni gapirish)

“Eine böse Sieben” e'tiborga loyiqdir, chunki ko'p tillarda (shu jumladan nemis tilida) "yetti" soni "omadli" deb hisoblansa ham, bu yerda u salbiy ma'noga ega. Buning sababi karta o'yini uchun tarixiy belgilar bo'lib, unda shaytonning o'zi "yetti" raqami bilan kartada tasvirlangan<sup>218</sup>.

Xulosa qilib aytganda sonlar ishtirok qilgan frazeologizmlar bir qanchani tashkil qilishi mumkin. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, nemis tilining to'plam iboralari tuzilish jihatdan ingliz va rus frazeologik birliklariga juda yaqin. Biroq, bu iboralarning semantikasiga kelsak, turli xil farqlar bo'lishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

6. Burger Harald. Idiomatik des Deutschen. Frankfurt am Main, Tübingen, Max Niemeyer Verlag, 1973.

7. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический аспект, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -Москва, высшая школа «Языки русской культуры», 1996.

8. K.Nasarov, Sh. Imjainova, N.Tjan. Minimum der deutschen sprichwörter und Redensarten.-T: “Zamin nashriyoti”.2020.

9. Duden. Das Wörterbuch der deutschen Idiomatik. – Berlin, 2013.

10. Л.Э. Бинович. Немецко-русский фразеологических словарь. Москва 1995.

<sup>218</sup> Jukov V.P. Frazeologik birliklarning semantikasi, Ma'rifat 1978 yil